



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna

Namangan davlat universiteti Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Email: gulshodamirzatova@namdu.uz

Komiljanova Shoxsevar Uchqunjon qizi

Namangan davlat universiteti jahon tillari fakulteti 2- kurs talabasi

Email: komiljanovashoxsevar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda samaradorligi haqida fikr yuritilgan. O'yin texnologiyalarini tashkil etishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, o'yin texnologiyalaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ingliz tili, o'yin texnologiyalari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, interfaol metodlar, lug'at boyligi, til ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

USING GAMING TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN

Mirzatova Gulshoda Khudoyberdiyevna

Namangan State University, Senior Lecturer, Department of Pedagogy

Komiljanova Shokhsevar Uchkunjon kyzy

Namangan State University, Faculty of World Languages, sophomore student

Annotation. This article examines the importance of using game technologies in teaching English to preschool-aged children, their role in the educational process, and their effectiveness. It highlights the advantages of educational games, interactive methods, and information and communication technologies used in organizing game technologies, taking into account the age and psychological characteristics of children. Examples of game technologies are also provided.

Keywords: preschool education, English language, game technologies, educational games, action games, interactive methods, vocabulary, language skills, communicative competence, learning effectiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ym-dif-y2026v2i13/n25>

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning uzluksizligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish masalalari belgilangan. Qonunda maktabgacha ta'lim bolaning intellektual, ma'naviy va nutqiy rivojlanishining boshlang'ich bosqichi sifatida e'tirof etiladi. [1; B.7.] "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"da bolaning:

- ✓ nutqiy rivojlanishi;
- ✓ kommunikativ kompetensiyasi;
- ✓ eshitish va talaffuz ko'nikmalari;

✓ xorijiy til elementlarini qabul qilish qobiliyati bo'yicha talablar belgilangan.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun asosiy metodik hujjat hisoblanadi. Dasturda:

- ✓ bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish;
- ✓ nutq faoliyatini shakllantirish;
- ✓ chet tillariga qiziqishni uyg'otish;
- ✓ o'yin asosida ta'lim berish tamoyillari aks ettirilgan.

Bugungi kunda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'rgatish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lib, ular yangi so'z va iboralarni tabiiy ravishda tez o'zlashtiradilar. Shu sababli ta'lim jarayonida bolalarning yoshiga mos, qiziqarli va samarali metodlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Ana shunday metodlardan biri o'yin texnologiyalaridir.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, muloqot qilishni o'rganadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ingliz tilini o'rgatishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni erkin fikr bildirishga undaydi hamda o'quv materialining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar bolalarning lug'at boyligini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, **"Flashcard Games"**, **"Memory Game"**, **"Simon Says"**, **"Find the Color"**, **"What's Missing?"** kabi o'yinlar orqali bolalar ranglar, hayvonlar, mevalar, sonlar va kundalik hayotda qo'llaniladigan so'zlarni oson o'rganish mumkin. Ushbu o'yinlar bolalarda eslab qolish, tinglash va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlardan namunalar keltirilgan.

1. Simon Says ("Saymon so'zlaydi")

O'yinning maqsadi: harakat fe'llarini o'rganish va ingliz tilidagi nutqni tushunish.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga buyruq beradi:

- *Simon says: Jump!*
- *Simon says: Clap your hands!*
- *Simon says: Touch your nose!*

Agar tarbiyachi buyruq berayotganda *Simon says* so'zini aytmasa, bu harakatni bolalar bajarishi mumkin emas.

O'zlashtiriladigan so'zlar: jump, run, sit down, stand up, clap, touch.

2. What's Missing? ("Nima yo'qoldi?")

O'yinning maqsadi: bolalar xotirasi va qiqqatini rivojlantirish va so'z boyligini mustahkamlash.

O'yinning borishi: 6-8 ta rasimli kartochkalar stol ustiga joylashtiriladi (masalan: apple, cat, dog, car va boshqalar). Bolalar ko'zlarini yumadilar va bitta rasm olib qo'yiladi. Keyin tarbiyachi bolalardan so'raydi:

Teacher: *What's missing?*

Bolalar javob beradilar:

The apple is missing.

3. Memory Game ("Juftini top")

O'yinning maqsadi: yangi so'zlarni yod olish.

O'yinning borishi:

Stolda rasmlar pastga qaratib qo'yiladi. Bola ikkita rasmni o'giradi. Agar rasmlar bir-biriga mos kelsa, bola o'sha rasmdagi so'zni aytishi lozim:

Masalan:

- *Banana*
- *Dog*
- *Blue*

Eng ko'p juft rasmlarni to'plagan bola g'olib hisoblanadi.

4. Find the Color ("Rangini top")

O'yinning maqsadi: Bolalarga ranglar haqida ma'lumot berish.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi aytadi:

- *Find something red.*
- *Touch something green.*
- *Show me something yellow.*

Bolalar shu rangdagi predmetlarni topadilar va nomini aytadilar.

5. Ball Game ("Koptok bilan o'yin")

O'yinning maqsadi: Bolalarni og'zaki nutqni rivojlantirish.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi to'pni bolalarga uloqtiradi va ulardan so'raydi:

- *What is it?*
- *What color is it?*
- *How old are you?*

Bola javob beradi va to'pni qaytaradi. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.

6. Animal Sounds ("Bu qaysi hayvon"). O'yinning maqsadi: Bolalarga ingliz tilida hayvonlar nomini aytishni o'rgatish va og'zaki nutqni rivojlantirish.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga hayvonlarni rasmini ko'rsatadi yoki audio orqali ularni ovozi eshittiradi. Bolalar bu qaysi hayvon ekanligini topishadi va ingliz tilida nomini aytishadi. Qaysi bola faol ishtirok etsa g'olib hisoblanadi.

- *It's a dog.*
- *It's a lion.*
- *It's a monkey.*

7. Magic Bag ("Sehrli xaltacha")

O'yinning maqsadi: Bolalarni taktil idrokini rivojlantirish va ingliz tilidagi lug'atini boyitish.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi xaltachaga o'yinchoqlarni soladi. Bolalar esa qo'l bilan paypaslash orqali xaltachadagi o'yinchoqni oladi va u haqida gapiradi:

- *It's a ball.*
- *It's a car.*
- *It's a teddy bear.*

8. Role Play («Ролевая игра»)

O'yinning maqsadi: Bolalarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Muloqot qilish uchun namunalar:

- At the shop
- At the zoo
- At the doctor's
- In the family

Диалог:

1- Bola:- *Hello!*

2- Bola:- *Hello!*

1- Bola:- *Can I have an apple, please?*

2- Bola:— *Here you are.*

1- Bola:— *Thank you.*

2- Bola:— *You're welcome.*

Shuningdek, harakatli o'yinlar esa maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ingliz tilidagi buyruqlarni tushunish va bajarish malakasini ham shakllantiradi. Masalan, **“Stand up”, “Sit down”, “Jump”, “Run”, “Clap”** kabi buyruqlarni bajarish orqali bolalar yangi so'zlarni tabiiy ravishda hamda oson o'zlashtiradilar. Rolli o'yinlar (Role Play) ham maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda samarali hisoblanadi. “Bizning oila”, “Do'konda”, “Shifokor huzurida”, “Bog'chada” kabi vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bolalar sodda dialoglarni tuzishga, o'z fikrini ifodalashga va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rganadilar. [2; B.47.].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham o'yin texnologiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Multimediali taqdimotlar, interaktiv doskalar, mobil ilovalar, animatsion videolar va qo'shiqlar bolalarning eshitish va ko'rish orqali bilimlarni mustahkamlashiga yordam beradi. Ayniqsa, ingliz tilidagi qo'shiqlar va she'rlar talaffuzni yaxshilash hamda lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. [3; B.78.].

O'yin texnologiyalaridan foydalanishda pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- ✓ bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ✓ o'yinlarning ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash zarur;
- ✓ o'yinlarning davomiyligi 5-10 daqiqadan oshmasligi kerak;
- ✓ bolalarning faol ishtirokini rag'batlantirish (*Good job!, Excellent!, Well done!*);
- ✓ o'yinlarda yorqin rasmlardan, kartochkalardan, o'yinchoqlardan, quvnoq qo'shiq va harakatlardan foydalaning;
- ✓ mashg'ulotlar davomida o'yin va o'quv faoliyatining uyg'unligini saqlash zarur;
- ✓ bolalarning qiziqishini qo'llab- quvvatlash maqsadida sokin va harakatli topshiriqlarni almashtirib turish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar va o'yinlar bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlash va muloqot qilish kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shunu ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'yinlar bolalarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi,

mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishga yordam beradi hamda til ko'nikmalarining tabiiy shakllanishiga imkon beradi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlarini rejalashtirishda zamonaviy o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.(qayta to'ldirilgan nashri) - Toshkent, 2020.
4. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press, 2001.
5. Brewster, J., Ellis, G., Girard, D. The Primary English Teacher's Guide. Pearson Education, 2002.
6. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2007.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.